



# МУҒАЛЛИМ ХӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 6.2.1 2023

гуманитарные науки  
естественные науки  
технические науки

1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ  
МӘМЛЕКЕТЛИК СТАТУС БЕРИЛГЕН КҮН

# **МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2023**

**6-2-1сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

**Нөкис**

**6-2-1сан**

**2023**

*декабрь*

---

*Шолкемлестириүшилдер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Максет АЙЫМБЕТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Шахло БОТИРОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Уролбой МИРСАНОВ	

## МАЗМУН ТИЛ ҲЭМ ӘДЕБИЯТ

**Fozilov O.** O'zbek va ingliz tillarida hosila nominalining motivatsion asoslari (perefrazalar misolida).

**Aliyeva Z.** Ornitonim komponentli ingliz va o'zbek idiomalarining tahlili

**Alimova Sh.** Ingliz va o'zbek tillarida pora va ta'magirlik konseptlarining lingvomadaniy va semantik talqini

**Aliyeva Z.** Ingliz va o'zbek tilida ornitonim komponentlari bo'lgan frazeologik birliklar haqida ilmiy qarashlar.

**Eshquvvatova G.** Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning tasnifi food/taom komponentli frazeologik birliklari misolida.

**Марданов А.** Основные понятия логико-семантических моделей

### ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

**Maxmudova M.** Yan Amos Komenskiyning pedagogik faoliyati va nazariysi

**Jabborov M.** Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishslashning shakl va metodlari.

**Mahkamova Sh.** Innovatsion texnologiyalar asosida musiqa san'ati boshqaruvi

**Xo'jamqulov P., Musayev N., Muminova D.** Umumta'lum maktablari o'quvchilarida ta'limiy-tarbiyaviy immunitetni shakllantirish yo'llari.

**Qayumov J.** O'quvchilarga xonandalik asarlarini erkin va ifodali kuylatish uslublari.

**Musayev N., Xo'jamqulov P.** O'zbek milliy maqom san'atini yosh ijrochilarga o'rgatishda etibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar.

**Rajabova S.** Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda Marvelous Designer dasturidan foydalanish metodikasi

**Yunusov O.** Musiqa ta'limida qo'shiq kuylash ijodiy faoliyatga o'rgatish

**Umarov A.** Pedagogik-kasbiy kompetentlik ta'lim jarayonini rivojlantirishning muhim omili sifatida.

**Eshankulova D.** Umumta'lum maktablarida kimyo fanining o'qitilishi va zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilish uslublari.

**Yadgarova D.** Talabalar valeologik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish.

**Lafasov B.** Texnologiya fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda "steam – ta'lim".

**Mo'minov K.** Forsayt texnologiyalar asosida talabalarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuv

**Qulmatov Z.** Pedagogik tadqiqotlarda ma'lumotlarni qayta ishslash texnologiyasi

**Umirova G.** Texnika oliv ta'lim muassasalari talabalarida rahbarlik qobiliyati va boshqaruvi kompetensiyasini rivojlantirishning tarkibiy qismlari

**Axmedova M.** Mustaqil va o'quv topshiriqlarini metodik takomillashtirishda ona tili fanining vazifalari

**Qosimov Sh.** Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish

**Xayitova Sh.** Oilada o'zaro muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik omillari

**Xoliqova R.** Ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini metodik-pragmatik takomillashtirish

**Muxitdinova M., Syomkina A.** Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik kompetensiyalari

**Maxkamova M.** Pedagogika oliv ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari

**Muslimov Sh.** Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish mezonlari

**Xaydarova M.** Ta'lim qonunlari - uni samarali tashkil etish bu ba'zi muhim talablar uchun asosdir.

**Toshmatova Sh, Ernazarov Z.** Bilgiya faning yangi metodikalari

**Xakimov T.** Sharq allomalaring pedagogik qarashlari asosida oliy ta'lim talabalarining pedagogik tafakkurini oshirishni takomillashtirish.

**Nazirova F.** O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyat

**Irmatova M.** Boshqaruв psixologiyasining fundamental asoslari

**Xaydarova M.** Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish

**Rasulova M.** O'qituvchilarning loyihaga asoslangan o'qitish kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy usullari

**Djabbarova N.** Talaba-qizlarda liderlik sifatlarni rivojlantirishning ta'limiy imkoniyatlari

**Haydaraliyeva Z.** O'zbekiston ta'lim tizimini xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish

**Rajabov X.** Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining axborot-metodik kompetentligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyasidan foydalanish tamoyillari

**Сулаймонов А. Собиров С.** Формирование компетенций, учащихся по иллюстративному рисованию по принципу непрерывности.

**Боймираева Д.** Роль социальная креативность в деятельности будущих образовательных менеджеров

### **МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ**

**Xakimova B.M.** Gender o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida mакtab o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini o'stirishning nazariy jihatlari

**Sarsenbaev A.** Haqoratning jinoiy-huquqiy tasnifi

### **ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА**

**Мустафоев А.** Бўлажак ўқитувчиларда медиатаълим кўниммаларини шакллантириш зарурати

**Azamxonov B.** Texnik oliv ta'lim muassasalarida virtual kompyuter simulyatorlarining qo'llanilishi va asosiy xususiyatlari

**Umarov A.S.** O'zbektonda badiiy ta'lim klasterini tashkil etish va rivojlantirishning nazariy asoslari

**Siddiqov I.M.** Sun'iy intellektning zamonaviy texnologiyalari

**Siddiqov I.M.** Ta'limda buyumlar internetidan foydalanishning ahamiyati

**Shirinov F.Sh.** Matematik masalalarini yechishda qo'llaniladigan amaliy uskunaviy paketlar

**Suyumov J.** Ta'lim jarayonida o'qitishning innovatsion metodlari: kompyuter imitatsion modellar misolida

**Ahmedova G, Mahmudova O.** Logarifmik transendent tengsizliklarni hisoblash usullari

**Muydinjonov Z, Muydinjonov D.** Digital technologyand learning opportunities

**Muydinjonov Z, Muydinjonov D.** Digital technology competence

### **БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТЭРБИЯ**

**Tolipova T.** XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish usullari

**Elmurotova D.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash modeli

**Мустафаева З.** «Совершенствование и развитие творческих способностей детей дошкольного возраста»

**Odilova H.** Xorijiy mamlakatlar tajribasida maktabgacha yoshdag'i bolalarda axborot muhitida ekologik munosabat masalasining qiyosiy tahlili

**Нурбаева.И.** Условия интеллектуального развития старшего дошкольника в процессе формирования математических представлений

**Akmalova M.** Zamonaviy formatsiyadagi maktabgacha ta'lim tashkiloti – Yangi O'zbekiston ijtimoiy muhitida

**Zokirova S, Quziyeva N,** Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tasavvur imkoniyatlarini rivojlantirish

**Xolyigitova B.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini badiiy adabiyotlar asosida shakllantirish pedagogik muammo sifatida

**Kasimova D.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlikni shakllantirish jarayonida event texnologiyasidan foydalanish afzalliklari.

**Xovodillayev M.** 9-13 yoshdagi aqli zaif bolalarda nutqni shakllantirish texnologiyalari.

**O'rroqova Sh.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini dunyoqarashini tabiiy fanlar misolida intellektual rivojlantirish metodikasi

**Saydillayeva M.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini rivojlantirishning loyihalashtirish xususiyatlari.

**Файзиева У.** Эшитишида муаммолари бўлган болалардаги нуткнинг ривожланиш даражаси

**Safarova Sh.** Boshlang'ich sinflarda geometriya materiallarini o'rgatishning didaktik ta'minoti

**Yo'ldoshev O.** Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni

**Kubayeva M.** Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashning nazariy asoslari

**Xaydarov B.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida umumrivojlantiruvchi mashqlarni mustaqil bajara olish ko'nikmalarini shakllantirish usullari

**Hamidova G.** Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish orqali innovatsion tafakkurini shakllantirish

### **ТАСВИРИЙ САЪНАТ**

**Султанов X.** Кластер усули орқали тасвирий санъат таълимини интеграциялаш имкониятлари

**Bekqulov Q.** Muhandislik grafikasi talabalarining mustaqil ijodiy ish faoliyatini tashkil etishning mazmuni.

**Talipov N.** Naqqoshlik san'atida kompositsiyaning ahamiyati

**Malikov K.** Texnik oliy o'quv yurtlarida muhandislik va kompyuter grafikasi fanini o'qitishda talabalarni to'garak mashg'ulotlariga qiziqtirish orqali kasbga bo'lgan ijodkorligini shakillantirish.

**Fayziyeva S.** Muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda gumanitar, ijodiy va umummadaniy yo'nalishlarda o'qitish metodikasini takomillashtirish.

### **ФИЗИКАЛЫҚ ТЭРБИЯ ҲӨМ СПОРТ**

**Ochilov R.** Turli o'yin ampliasiga ega yosh futbolchilarni jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish yo'llari

4. Имоматова У. М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадий тасаввурни ошириш //International scientific research conference. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 13-17.
5. Eralievich, S. X., & Sultanovna, M. I. M. (2020). Formation of students ‘spiritual education through creative circles in secondary schools. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 9(6), 53-58.

## REZYUME

Ушбу мақолада бошқа соҳаларда муваффақиятли қўлланилаётган кластер усулини тасвирий санъат соҳасига интеграциялаш имкониятларини кўриб чиқилади. Кластер усулининг назарий асосларини, шунингдек, унинг ижодкорликни рафбатлантириш, фанларо ҳамкорлик ва ижодкорликка асосланган мухитда таълим тажрибасини ошириш имкониятлари ўрганилади. Ушбу тадқиқот тасвирий санъат соҳасида инновацион услуга ва ёндашувлардан фойдаланган ҳолда таълим жараёнини оптималлаштиришни яхшироқ тушунишга ёрдам беради.

## РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются возможности интеграции кластерного метода, который успешно применяется в других областях, в сферу изобразительного искусства. Исследуются теоретические основы кластерного метода, а также его потенциал для развития творчества, междисциплинарного сотрудничества и улучшения образовательного опыта в творческой среде. Данное исследование способствует лучшему пониманию оптимизации образовательного процесса с использованием инновационных методов и подходов в области изобразительного искусства.

## SUMMARY

This article discusses the possibilities of integrating the cluster method, which has been successfully used in other fields, into the field of fine arts. The theoretical foundations of the cluster method are explored, as well as its potential for promoting creativity, interdisciplinary collaboration, and enhancing the educational experience in creative environments. This study contributes to a better understanding of optimizing the educational process using innovative methods and approaches in the field of fine arts.

### **MUHANDISLIK GRAFIKASI TALABALARINING MUSTAQIL IJODIY ISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MAZMUNI.**

**Bekqulov Q.Sh**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Tayanch so‘zlar:** ananaviy, mustaqil, amaliy, elektron, joizki, shakllantirish, topshiriq, modellashtirish, ta’kidlash.

**Key words:** traditional, independent, practical, electronic, appropriate, formation, assignment, modeling, highlighting

**Ключевые слова:** традиционный, независимый, практический, электронный, уместный, формирование, задание, моделирование, выделение.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyotining intensive rivojlanishi natijasida talabalar qisqa muddat ichida o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan ma’lumotlar hajmi kengayib ketti. Bularning hammasi o‘rganiladigan ma’lumotlar mazmunini kengaytirishga olib keladi va fanlardan dars berishning ananaviy uslublarini tubdan takomillashtirishni talab qiladi.

Ma’lumki, ta’lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayondir. Bu jarayonda o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham faol bo‘lishi kerak. Agar pedagog o‘z ishida muvafaqqiyatga erishishga intilsa u albatta talabalarning faolligini oshirish, faollikni rag‘batlantirish va kerakli yo‘lga solishi lozim. Talabalar faoliyatini oshirishning asosiy vositalaridan biri ularning mustaqil ta’limlarini to‘ri tashkil qilishdir. Chunki bu jarayonda o‘qitish samaradorligini oshirish va mutahassislarini tayyorlash sifatini yaxshilashning asosiy zaxiralari yashiringan. Shu sababli ham oliy ta’lim tizimida o‘qitish jarayoni o‘qituvchilar raxbarligida tashkil qilinadigan va boshqariladigan talabalarning mustaqil mehnatlari ko‘rinishini olmoqda.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni rejalashtirish.

Talabalar mustaqil ta'limining asosiy maqsadi-o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida yoki mustaqil ravishda talabada muayyan o'quv ishlarining mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Talabalar mustaqil ish va amaliy mashg'ulotlarni turli shakllarda bajarishadi, chunki mustaqil olingen bilimlarning o'rni, kuchi va qiymati yuqorida.

Mustaqil ta'lim- bu maqsad, vazifa, ifoda shakli va natijani tekshirishga ega bo'lgan talabalarning faoliyati. Ularni ushbu faoliyatni turini tashkillashtirish va rag'batlantirishga ko'mak berish fan o'qituvchilarining vazifasidir. Faqatgina o'qituvchi talabaning yoshini, uning shaxsiy fazilatlarini inobatga olishi, talabalar xotirasi va e'tiboriga yuklarni teng taqsimlashi ularning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Mustaqil ta'limining asosiy vazifalarida quyidagilar aks etadi:

-talabalarning mavzularga oid yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi,

- axborot manbalari (adabiyotlar, gazeta va jurnallar, internet saytlari) dan samarali foydalangan holda kerakli ma'lumotlarni izlab topa olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari, uning qulay usullari va vositalarini aniqlashi,

-me'yoriy hujjatlar, elektron o'quv va ilmiy adabiyotlar, o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlay olishi, internet tarmog'idan maqsadli foydalanishi, turli topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondasha olishi nazarda tutiladi.

Shu bilan birga, ta'kidlash joizki pedagogik adabiyotlarda oliv o'quv yurtlari talabalarning o'qishi faqat o'qitish bilangina emas, balki ularning mustaqil ta'lim olishi bilan ham tavsiflanadi.

So'nggi yillarda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish sohasida ma'lum tajribalar bo'lsada, bu ishlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoida. Shuni alohida takidlash joizki, talabaning tor yoki keng ma'noda bo'ladimi baribir shu mustaqil ta'limsiz ta'limni muvvaffaqiyatlri o'zlashtirish xaqida gap bo'lishi mumkin emas. Yana shuni esda tutish kerakki, talabalarning mustaqil ta'limi ma'ruza, amaliy, seminar, mashg'ulotlaridan tamoman ajralgan va dastur bilan aloqasi bo'limgan holda tartibsiz tashkil etiladigan ish degani emas. Aksincha u o'qitiladigan fanning yo'naliishi bilan uzviy dialektik bog'liqidir.

"Mustaqil ish" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, talabalarning mustaqil ishi muammolari bo'yicha katta miqdordagi pedagogik izlanishlarga qaramay, ushbu didaktik jarayonning mazmuni va mazmuniga yagona yondashuv mavjud emas. Turli xil talqinlar, birinchi navbatda, "mustaqil" so'ziga qanday tarkibiy qism kiritilganligiga bog'liq. Asosan, ushbu tushunchaning uchta ma'nosi bor:

- o'quvchi o'qituvchining bevosita ishtirokisiz ishni o'zi bajarishi kerak;
- talabadan mustaqil aqliy operatsiyalar, o'quv materialida mustaqil yo'naltirish talab etiladi;
- ish qat'iy tartibga solinmagan, talabaga topshiriqlari bajarish tarkibi va usullarini tanlash erkinligi berilgan.

Mustaqil ish - bu mustaqillik kabi muhim shaxsiyat fazilatlarini shakllantirish vositasi, talabalarning bilim faoliyatini tashkil etish shakli bo'lib, ular faoliyatning namoyon bo'lishini, vazifani bajarishda fikrlash, ijodkorlik, qatiyatlilik va tashabbuskorlikni talab qiladi.

Talabalarning mustaqil ishlarining turli bosqichlarida ularning mustaqilligi oddiy takrorlash, taqlid qilishdan ijodiylikka qadar turli xil ko'rinishda namoyon bo'ldi. U yuzaga keladi, rivojlanadi va murakkablashadi, bajarilishi kerak bo'lgan vazifalarning murakkabligi oshadi. Talabalar mustaqilligining tashqi belgilari - bu o'quv ishlarini rejalashtirish; o'quv adabiyotlarini, mustaqil ishslash uchun o'quv qo'llanmalarini tanlash; o'quv topshiriqlarini bajarish va o'qituvchining bevosita yordamisiz va batafsil ko'rsatmalarisiz qurol va texnika namunalari ustida ishslash; mashg'ulotlar, o'yinlar, jismoniy tarbiya paytida kasbiy vazifalarni mustaqil bajarish.

Talabaning turli xil fanlardan mustaqil ishlashi samaradorligi birinchi navbatda uning shaxsiy fazilatlari, intizomi, motivatsion munosabati, xotira, e'tibor, ixtiyorli fazilatlar va boshqalar kabi aqliy fazilatlarga bog'liq, ammo samarali mustaqil ishslashning asosiy shartlaridan biri bu ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talabalarning mustaqil ta'limining mohiyati va o'qituvchining uning tashkiliy va boshqaruvdagi o'rni ham turli mualliflar tomonidan har xil tarzda izohlanadi. Tadqiqotchilar talabalar mustaqil ishlarining asosiy tarkibiy qismlarini asosiylari deb hisoblashadi, shuning uchun ular eng muhimini hisobga olib, boshqasini qoldirib, uning belgilarini turli yo'llar bilan shakllantirishadi. Turli xil fikrlarni sarhisob qilsak, ta'lim muassasalari o'quvchilarining mustaqil ishlarining asosiy muhim xususiyatlarini ta'kidlashimiz mumkin:

Tashqi. Ular o'quv yoki boshqa murakkab muammo sifatida harakat qiladigan o'quv-kognitiv yoki amaliy vazifaning mavjudligini o'z ichiga oladi, uning echimi talabaning shaxs sifatida rivojlanishiga hissa qo'shamdi. Bu vazifa uni mustaqil aqliy va amaliy ishlarga rag'batlantirishi, ma'naviy va jismoniy kuch talab qilishi kerak, shuningdek talabalar o'z ishlarini rejalahtirish, ish joyini tayyorlash, topshiriqlarni batafsil tanishtirish brifingisiz va o'qituvchining bevosita yordamisiz bajarish. Bundan tashqari, ikkinchisining roli faqat tashkiliy va funksional jihatdan bog'liq bo'lgan nazorat harakatlar prizmasidan kelib chiqadi.

Ichki. Ular talabalar mustaqillik va ijodiy faolligi namoyon bo'lishida ularga yuklangan o'quv, kognitiv va amaliy vazifalarni hal qilishda, shu bilan birga mustaqillikning barcha darajalarida berilgan topshiriqlarni model bo'yicha takrorlashdan qisman izlash va hatto ijodiy izlanishlarga o'tishdan iborat. Bundan tashqari, talabalarning mustaqil ta'limi sifat jihatidan o'zgarib, izchil rivojlanmoqda. Bu o'z-o'zini boshqarish, introspekteviya, o'z-o'zini sozlash va mustaqil ish natijalarini yaxshilash bilan shug'ullanadigan talabalarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, o'qituvchining ijodiy faoliyati jarayonida o'quv rejasি, o'quvchilarining tayyorgarligi darajasi va boshqa omillarni hisobga olgan holda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning aniq usullari va shakllari belgilanadi, shuning uchun ushbu tavsiyalar universallikka mos kelmaydi. Ularning maqsadi o'qituvchiga talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun o'z ijodiy tizimini shakllantirishga yordam berishdir.

## **Adabiyotlar.**

1. Boburmirzo, Kukiev., Achilov, Nurbek, Norboy o'g'li & Bekqulov, Qudrat, Shaydulloyevich. (2019). Technology for creating images in autocad. European Journal of Research and Reflection in Educational Science. 7 (12), 49-54-220.
2. Shaydulloyevich, B. K. (2020). Increasing students' graphic literacy through teaching the sciences of drafting and descriptive geometry. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (4), Part II, 75-78.
3. Achilov Nurbek Norboy o'g'li, Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich, Ko'kiyev Boburmirzo Baxodir o'g'li & Jumayev Isroil Omandovlat o'g'li (2020). Methods of developing creative abilities in children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8 (10), Part II, 151-153.
4. Bekqulov Qudrat Shaydulloyevich., Kukiyev Boburmirzo Bahodir ugли., Avazova Guzal Rustambek qizi. (2020). The works in the framework of five initiatives at chirchik state pedagogical institute in tashkent region. EPRA International Journal of Research and Development, 5 (3), p. 411-412.
5. Boizaqova, S. A., Bekqulov Q.Sh. (2021). Ko'rinishlar mavzusni tushuntirishda detal modelini o'ziga qarab o'rganishning ahamiyat. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(3), 96-101.

## **REZYUME**

Ma'lumki, ta'lim berish jarayoni-ikki yoqlama jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchi ham, o'quvchi ham faol bo'lishi kerak. Agar pedagog o'z ishida muvafaqqiyatga erishishga intilsa u albatta talabalarning faolligini oshirish, faollikni rag'batlantirish va kerakli yo'nga solishi lozim. Talabalar faoliyatini oshirishning asosiy vositalaridan biri ularning mustaqil ta'limlarini to'ri tashkil qilishdir. Chunki bu jarayonda o'qitish samaradorligini oshirish va mutahassislarini tayyorlash sifatini yaxshilashning asosiy zaxiralari yashiringan. Shu sababli ham oliy ta'lim

tizimida o‘qitish jarayoni o‘qituvchilar raxbarligida tashkil qilinadigan va boshqariladigan talabalarning mustaqil mehnatlari ko‘rinishini olmoqda.

## РЕЗЮМЕ

Известно, что процесс воспитания является двусторонним процессом. И учитель, и ученик должны принимать активное участие в этом процессе. Если педагог стремится добиться успеха в своей работе, он обязательно должен повышать активность учащихся, поощрять их активность и направлять их в правильном направлении. Одним из основных средств повышения активности учащихся является правильная организация их самостоятельного обучения. Потому что в этом процессе скрыты основные ресурсы повышения эффективности преподавания и улучшения качества подготовки специалистов. По этой причине учебный процесс в системе высшего образования принимает форму самостоятельной работы студентов, организованной и управляемой под руководством преподавателей.

## SUMMARY

It is known that the process of education is a two-way process. Both the teacher and the student should be active in this process. If the pedagogue strives to achieve success in his work, he must definitely increase the activity of students, encourage their activity and guide them in the right direction. One of the main means of increasing the activity of students is the proper organization of their independent education. Because in this process, the main resources for increasing the effectiveness of teaching and improving the quality of training of specialists are hidden. For this reason, the teaching process in the higher education system takes the form of independent work of students organized and managed under the guidance of teachers.

### NAQQOSHLIK SAN’ATIDA KOMPOZITSIYANING AHAMIYATI

Talipov N.N.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Tasviriy san’at kafedrasi dotsent v.b.

**Tayanch so‘zlar:** naqqoshlik, kompozitsiya, komponovka, ritm, stilizatsiya, simmetriya, asimmetriya, nisbat, hajm, yakka band, rapport, qo‘sh band.

**Ключевые слова:** роспись, композиция, компоновка, ритм, стилизация, симметрия, асимметрия, пропорция, объём, одно ветвь, раппорт, двойное ветвь.

**Key words:** painting, composition, layout, rhythm, stylization, symmetry, asymmetry, proportion, volume, single branch, rapport, double branch.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning hayotga kirib kelishi inson faoliyatida, ijtimoiy ongida katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Insonning hayotda tutgan o‘rni to‘g‘risidagi tasavvurlari kundan-kun takomillashib, o‘zgarib olamni anglashning yangi usullari shakllanmoqda, ma’naviy-amaliy o‘zlashtirishning yangi vositalari va usullariga yuz tutilmoqda. **“Bizning vazifamiz — to‘plangan tajriba va ilg‘or xalqaro amaliyotga suyangan holda, —** degan edilar Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘zlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, deb nomlangan nutqlarida, — **o‘zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat’iy amalga oshirishdan iborat”.**

Darhaqiqat, ta’limda ijodiy izlanishlar haqiqiy ilmiy nazariyaga, jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga, o‘qitishning nazariy asoslari, shaxs rivojlanishini harakatga keltiruvchi kuchlari va uning shakllantirish sharoitlari to‘g‘risidagi bilimlarning keng tizimiga tayangan holdagina muvafaqqiyat qozonadi.

Inson omillarining yuqorilab borishi, uning hayotiy sharoitlarini o‘zgartiruvchi va insonni o‘zini ham o‘zgartiruvchi faoliyat hozirgi zamonda ta’limning umumiy asosiy mezoniga aylandi.

